



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE  
UNIVERSITY

**FarDU.**  
**ILMIY XABARLAR**

---

**IJTIMOIY GUMANITAR  
FANLAR**

---

**Scientific journal  
of the  
Fergana State  
University**



**3/2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
---	--	--

## Tahririylashashriyot kengashi

IJTIMOIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA			
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	SIDDIQOV I. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof.	YULDASHEV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
TOJIBOYeva H. (O'zbekiston)	Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc)	G'ANIYEV B. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots.
O'RINOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.dots.	QOSIMOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
ABBASOVA N. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.b.f.d(PhD)	MAMAJONOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
DAVLYATOVA G. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.n.	ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
G'OFUROV A. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	SHUKUROV R. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.d.prof.	ZOKIROV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.prof.
HOLMATOV B. (O'zbekiston)	FarDU, i.f.n.	MO'MINOV S. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
XAKIMOV N. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d. dots.	YULDASHEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.doktori.
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.	MAMAJONOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d.dots.
USMONOV B. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d (DSc)	KAXAROVA M (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.dots.
MAXMUDOV O. (O'zbekiston)	FarDU, t.f.d.dots	ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.n.
QAHHOROVA M. (O'zbekiston)	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof.	SABIRDINOV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.
MAMATOV M. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d (PhD).prof.	RAHIMOV Z. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.,dots
QAMBAROV A. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.prof.	MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)		

**Muharrirlar:**

Sheraliyeva J.

Mirkarimova Sh.

**Musahhihlar:**

Raximov J.

Mahmudov F.

**Tahririylashashriyot manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti: Journalal.fdu.uz

Farg'ona, 2024.

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi .....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi.....	336
<b>M.Q.Tolibboev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar.....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari .....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni .....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari .....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasи" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili.....	361
<b>A.O.Tairov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot .....	369
<b>P.A.Nabihev</b>	
"Farg'onada vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....	378
<b>P.A.Arslonzoda</b>	
Tasviри makotib ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir .....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman.....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni .....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi.....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli .....	424
<b>X.T.Mirzaev</b>	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti .....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid .....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'ichiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili.....	449
<b>B.N.Ivakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



УО'К: 94(575.1)

## O'ZBEKISTONDA O'TKAZILGAN RAYONLASHTIRISH NATIJALARI

## РЕЗУЛЬТАТЫ РАЙОНИРОВАНИЯ, ПРОВЕДЕННОГО В УЗБЕКИСТАНЕ

## RESULTS OF ZONING CARRIED OUT IN UZBEKISTAN

Normatov Otobek Maxamatjonovich 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, t.f.f.d.(PhD) dotsent

*Annotatsiya*

Ushbu maqolada 1926-yilda o'tkazilgan rayonlashtirish jarayonlari va bu hududda yangi tashkil etilgan respublikalar va avtonom oblastlar taraqqiyotida o'ziga xos o'runga egaligi haqida so'z yuritiladi. O'rta Osiyoda yangidan barpo etilgan respublikalardagi ma'muriy birliklar, ularning chegaralari va hududini aniqlash bo'yicha tayyorgarlik ko'rilib jarayonlari, xususan, O'zbekiston SSRda o'tkazilgan ma'muriy va iqtisodiy rayonlashtirish, respublikada birinchi marta tashkil topgan rayonlar, bir tomonidan xalq xo'jaligi taraqqiyoti va iqtisodiyoti uchun, ikkinchi tomondan, yangi ma'muriy hududlarga bo'lish va boshqaruvin tizimida muhim ahamiyat kasb etganligi maqolada yoritililingan.

*Аннотация*

В данной статье говорится о процессах зонирования, проводившихся в 1926 г., и их особой роли в развитии вновь образованных республик и автономных областей на этой территории. Административные единицы в вновь образованных республиках Средней Азии, подготовительные процессы определения их границ и территорий, в частности административно-экономического зонирования в Узбекской ССР, впервые создаются в республике областей. С одной стороны, это важно для развитие и экономику народного хозяйства, а с другой стороны, важно для разделения на новые административные районы и систему управления.

*Abstract*

This article discusses the zoning processes carried out in 1926 and their special role in the development of the newly formed republics and autonomous regions in this territory. Administrative units in the newly formed republics of Central Asia, preparatory processes for determining their borders and territories, in particular administrative and economic zoning in the Uzbek SSR, regions created for the first time in the republic. On the one hand, this is important for the development and economics of the national economy, and on the other hand, it is important for the division into new administrative regions and management system.

**Kalit so'zlar:** Rayonlashtirish komissiyasi, O'zbekiston SSR, yangi ma'muriy hududlar, boshqaruvin tizimi, rayon, okrug, etnik tarkib, irrigatsiya tizimi, "Qizil O'zbekiston", "Pravda Vostoka".

**Ключевые слова:** Комиссия по регионализации, Узбекская ССР, новые административные районы, система управления, округ, район, национальный состав, ирригационная система, «Красный Узбекистан», «Правда Востока».

**Key words:** Regionalization Commission, Uzbek SSR, new administrative regions, management system, district, district, national composition, irrigation system, "Red Uzbekistan", "Truth of the East".

**KIRISH**

O'zbekiston SSRni yangi okruglar va rayonlarga ajratish Sovet apparati ishlarini yaxshilashga, uni aholiga yaqinlashtirishga, boshqaruvin idoralariga sarf etiladigan mablag'ni kamaytirishga imkon berdi va respublika ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini ta'minladi. Shuningdek, O'rta Osiyoda o'tkazilgan ham iqtisodiy, ham ma'muriy rayonlashtirish siyosati Markaz manfaatlari xizmat qildi. Sovet hokimiyati va bolsheviklar rayonlashtirish natijalaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urindilar.

O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish masalasi va uning natijalari, respublikaning ma'muriy-hududiy tuzilishi, etnik tarkibi, qishloq xo'jaligi va ularning ayrim jihatlari, chorvachilik va ularning umumiylari holati, transport tizimi, okrugning sanoatini o'ziga xosligi, hududda savdo-sotiq munosabatlari o'ziga xos ravishda amalga oshirilganligi ijtimoiy jarayonlarning statistik ma'lumotlar

## TARIX

va turli rayonlashtirish komissiyasi materiallaridagi ma'lumotlar asosida o'rganilishi ham mavzu dolzarbligini tashkil etadi.

O'zbekiston SSR territoriyasida yagona ma'muriy bo'linish: viloyat, uezd, volost va qishloq sovetlariga ajratish joriy qilindi. O'zbekistonda dastlab 7 ta viloyat: Zarafshon, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, markazdan boshqariladigan bitta avtonom rayon (Konimex rayoni) tashkil qilinadi. Bu paytda O'zbekistonda 23 ta uezd va 240 ta volost bo'lgan. Shuningdek, Tojikiston ASSR ham O'zbekiston tarkibiga kirgan. O'zbekiston SSR tashkil topgan 1925yilda uning maydoni 184 836 km<sup>2</sup> yoki 164 150 vyorst kv<sup>2</sup> bo'lgan. Bu paytda O'zbekiston SSR aholisi 4 058 500 kishidan iborat edi[1: –S. 91.]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, mazkur mavzuning tarixshunosligi unchalik boy emas. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng tashkil etilgan O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish va uning natijalariga oid tarixiy tadqiqotlarni quyidagi uchta guruh bo'lish mumkin: sovet davri, mustaqillik yillari hamda xorijiy tadqiqotlarga. Jumladan, sovet hokimiyati yillarida davlat va siyosat arboblari, tarixchilar tomonidan yaratilgan ayrim tadqiqotlarda ham O'zbekiston ma'muriy-hududiy holati va tarixi haqidagi ayrim fikr-mulohazalar ma'lum ma'noda maqolada o'z aksini topgan. XX asr 20-30-yillarda chop etilgan boshqa bir turkum adabiyotlarda O'zbekistonning sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy rayonlashtirish siyosati davridagi tarixi va xo'jalik ahvoli to'g'risida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston SSRning rahbarlari, siyosiy arboblarning ham bu masala xususidagi maqolalari va nutqlari ham muayyan ma'noda rayonlashtirish masalasiga bag'ishlangan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston SSR Markaziy revkomining qarori qabul qilinib, O'zbekistondagi viloyatlar, ular tarkibidagi uezdlarning ma'muriy markazlari belgilandi va shaharlar ro'yxati tasdiqlandi.

O'zbekiston SSR viloyatlari:

1. Zarafshon viloyati tarkibida 4 ta uezd, ular 23 ta volostga bo'lingan. Markazi – Buxoro shahri.
2. Samarqand viloyati tarkibida 4 ta uezd, ular 57 ta volostga bo'lingan. Markazi – Samarqand shahri.
3. Surxondaryo viloyati tarkibida 3 ta uezd, uezdlar 10 ta volostga bo'lingan. Markazi – Sherobod shahri.
4. Toshkent viloyati tarkibida 2 ta uezd, ular 26 ta volostga bo'lingan. Markazi – Toshkent shahri.
5. Farg'ona viloyati tarkibiga quyidagi 4 ta uezd, ular 72 ta volostga bo'lingan. Markazi – Qo'qon shahri.
6. Xorazm viloyati tarkibida 3 ta uezd, ular 23 ta volostga bo'lingan. Markazi – Xiva shahri.
7. Qashqadaryo viloyati tarkibida 3 ta uezd, ular 13 ta volostga bo'lingan. Markazi – Behbudiy (hozirgi Qarshi) shahri [1: –S. 90, 547].

O'zbekistonda ham rayonlashtirish siyosatini uzil-kesil o'tkazishga 1926 yili jiddiy kirishildi. 1926 yil mart oyi boshlarida O'zbekiston Kompartiyasi MK huzurida rayonlashtirish bo'yicha Markaziy siyosiy komissiya tashkil qilindi. Komissiya tarkibiga 16 nafar kishi kiritilib, unga O'zbekiston SSR Ishchi-Dehqon inspeksiyasi xalq komissari Axmadbek Mavlonbekov rais qilib tayinlandi. Markaziy siyosiy komissiya tomonidan o'z navbatida 4 ta kichik komissiya: texnikaviy, ilmiy, sovet qurilishi va moliyaviy-iqtisodiy kabi kichik komissiyalarini tashkil qildi. Texnikaviy kichik komissiya xarita va materiallar tayyorlash, tekshirish va boshqa ishlarni tashkil qilish bilan shug'ullandi. Ilmiy kichik komissiya iqtisod, geografiya, etnografiya fanlari hamda tabiiy-tarixiy shart-sharoit va xususiyatlarni yaxshi biladigan ilmiy va praktik xodimlarni o'z atrofiga to'pladi va xo'jalik, suv tizimi, aloqa yo'llari hamda alohida rayonlar aholi tarkibini jiddiy o'rganib, bu materiallar asosida rayonlashtirishning metod va prinsiplarini belgiladi va ularni muhokama qilishga kirishdi. Sovet qurilishi bo'yicha kichik komissiyasi Sovetlarning kelgusi boshqaruv sistemasini hal qilishi, mavjud bo'lgan to'rt pog'onali boshqaruv bo'g'inini uch pog'onali boshqaruvga almashtirishi kerak edi.

1926-yil 14-martda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi MK Ijroiya byurosi majlisida rayonlashtirish bo'yicha Markaziy siyosiy komissiyaning ish rejasi tasdiqlandi. Rejaga ko'ra komissiya faoliyati 1926-yil 1-aprel – 10 may kunlari O'zbekistondagi barcha oblastlarda tavsifiy tekshirish ishlarini o'tkazish bilan boshlanishi kerak edi. Qarorda ta'kidlanishicha, O'zbekistonda rayonlashtirish ishlarini 1926-yili yakunlash lozim edi. Buning uchun 15-25 mart kunlarida joylarda oblast va uezd siyosiy komissiyalari tuzilib, uning tarkibiga obkom sekretari, obispalkom va oblplan raisi, uezd sekretari, shuningdek, uezd ispolkomi, oblast yer boshqarmasi, suv xo'jaligi boshqarmasi, paxta komiteti oblast kontorasi raislari, qo'shchi uyushmasi vakili va boshqalar kiritildi.

1926-yil may oyida bo'lib o'tgan rayonlashtirish bo'yicha Markaziy siyosiy komissiyaning plenumi, O'zbekiston Kompartiyasi MK 2-chaqiriq III plenumi va boshqa majlislarda ham rayonlashtirish masalasi asosiy kun tartibida bo'ldi. Bu masala bo'yicha qilingan A. Mavlonbekov ma'ruzalari va qabul qilingan rezolyusiyalarda rayonlashtirish siyosatining mohiyati ko'rsatilgan.

1926-yil 10-iyunda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komitetining birinchi chaqiriq IV sessiyasi rayonlashtirish bo'yicha Markaziy siyosiy komissiyaning raisi A. Mavlonbekovning asosiy ma'ruzasini [2.] tinglab, eski ma'muriy bo'linishning yashab kelayotgan qoldiqlarini tugatish maqsadida, shuningdek, sovet apparatini ommaga yaqinlashtirish manfaatini ko'zlab, O'zbekiston SSRda rayonlashtirish o'tkazishga qaror qildi. Amalda bo'lgan 4 pog'onali (qishloq soveti, volost, uezd, viloyat) o'rniga ma'muriy bo'linishdan 3 pog'onali (qishloq soveti, rayon, okrug) ma'muriy bo'linishga o'tish, volostlar va uezdlar ortiqcha bo'lgani uchun ularni tugatishga va o'rniga zaruriy sondagi ma'muriy-iqtisodiy markazlar barpo etishga qaror qilindi; yangidan barpo etiladigan rayonlar bir-biri bilan iqtisodiy tomonidan yaqinlashishi va xo'jalik tomonidan okruglarning qat'iy tizimiga birlashtirilishi kerak edi.

Umuman olganda, O'rta Osiyoda rayonlashtirishning, jumladan, O'zbekistonda ham aholining milliy tarkibi, irrigatsiya tizimining uzviyligi, ayrim rayonlar xo'jalik shakllarining yo'nalishi, aholining iqtisodiy aloqalari va xo'jalik hamda madaniy hayotning boshqa muhim omillarini hisobga olgan holda o'tkazish kerak edi.

Yangi ma'muriy bo'linish loyihasi bo'yicha O'zbekiston SSRda sobiq 7 ta viloyat o'rniga 10 ta okrug: Andijon, Buxoro, Zarafshon [O'rta Zarafshon], Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'on, Xo'jand va Xorazm okruglari barpo etildi [Tojikiston ASSRdan tashqari]. Sobiq 23 ta uezd o'rniga dastlabki 87 ta rayon (tuman) tashkil etildi. Respublikada 239 ta volost tugatildi, qishloq sovetlarining miqdori 1152 tadan 1720 tagacha ko'paydi, ya'ni 43,3% oshdi. Bu paytda O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston ASSR hududi alohida Tojikiston milliy okrugiga ajratildi. U 12 ta rayon va 306 ta milliy sovetlardan tashkil qilinishi ko'rsatildi [3: – S. VI – VII.].

O'zbekiston SSR Sovetlari MIK Prezidiumining 1926-yil 19-iyundagi qarori bilan O'z SSR Markaziy rayonlashtirish komissiyasi tarkibini 40 kishidan iborat tasdiqladi: Axmadbek Mavlonbekov (komissiya raisi), Ye.Zelkina va Kasennelenbogen (rais o'rinosarlari), Korastelev (mas'ul sekretar va Prezidium a'zosi)[4.]. Markaziy komissiya tomonidan 25 iyun – 7 iyul kunlarida har bir viloyatdagi rayonlashtirish komissiyasi ma'ruzasini eshitib, ularning mulohazalarini va tayyorlagan loyihalarini Markaziy komissiyaning loyihasi bilan solishtirdi. 1926-yil 10-iyuldan 12-avgustgacha ishchi va dehqonlar tomonidan oxirgi loyiha keng muhokama qilindi[5: – S.346 – 347.].

Rayonlashtirishning maqsad va vazifalari aniq bo'lib, ko'zda tutilgan barcha ishlar amalga oshirilgach, rayonlashtirish bo'yicha O'rta Osiyo komissiyasi Prezidiumining 1926 yil 19 avgustdagagi qaroriga binoan O'z SSR Sovetlari MIK huzuridagi rayonlashtirish bo'yicha Markaziy komissiya joylarga direktiva jo'natib, rayonlashtirish masalasi bo'yicha tushuntirish, jumladan, qishloq sovetlari haqidagi fikrlar Sovetlarga o'tkazilayotgan navbatdagi qayta saylov largacha davom etishini ma'lum qildi[6.]. (O'zbekiston SSRda qishloq sovetlariga qayta saylovlar 1926-yil 13-dekabrda bo'lib o'tdi. Saylovda 1144 ta qishloq sovetlariga rais va a'zolar saylandi.)

1926-yil 16-sentabrda O'rta Osiyo rayonlashtirish komissiyasi plenumida O'zbekiston, Qirg'iziston va qisman Turkmanistonda rayonlashtirish masalalarini o'tkazish ko'rib chiqildi.

1926-yil 25 – 29 sentabrda Samarqandda O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasining V sessiyasi bo'lib, unda rayonlashtirish loyihasi, davlat budjeti va iqtisodiyot ahvoli kabi masalalar ko'rib chiqildi va tasdiqladi. Sessiyaning birinchi majlisida rayonlashtirish loyihasi

## TARIX

haqida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi raisi Yo'ldosh Oxunboboev ma'ruba qildi. U o'z ma'rurasida O'zbekiston xo'jaligidagi iqtisodiy holatni tahlil qilib, rayonlashtirish masalasi respublikaning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim rol o'ynashini ta'kidladi. Y.Oxunboboev ma'ruzasi yuzasidan sessiyada 14 nafar notiq gapirdi. Bu masala sessiyaning o'zida ham keskin munozara va tortishuvlarga sabab bo'ldi. Masalan, loyihamda Surxondaryo okrugining markazi sifatida ko'rsatilgan Sherobod o'rniga Qumqo'rg'on, O'rta Zarafshon okrugining markazi sifatida yozilgan Karmana o'rniga Mirbozor yoki Kattaqo'rg'on shaharlarini belgilash, Nov rayonini Toshkentga emas, balki Xo'jand okrugiga kiritish, alohida Isfara rayonini tashkil qilish kabi masalalarda munozara qizib ketdi. Komissiya tomonidan bu fikrlar so'nggi marta o'rganilgach, rayonlashtirish haqidagi qarorining asosiy oxirgi loyihasi tayyorlanib, u 29-sentabrda sessiya qatnashchilari ixtiyoriga havola qilindi. V sessiya 1926-yil 29-sentabr kuni rayonlashtirish to'g'risida tarixiy qaror qabul qildi. Bu qaror 1926-yil 18-oktabrda "Qizil O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarida chop etildi[7.]. Bu qarorga ko'ra O'zbekiston SSRda ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish amalga oshirildi hamda viloyatlar, uezdlar va volostlar tugatildi. Bu paytda O'zbekiston SSRda mavjud bo'lgan 7 ta viloyat, alohida Konimex qozoq rayoni, 23 ta uezd, 241 ta volost va 1163 ta qishloq jamoasi o'rniga yangi ma'muriy birliklar: 10 ta okrug, 87 ta tuman va 1720 ta qishloq sho'rosi (selsoviet) tuzildi[3.].

Rayonlashtirish to'g'risidagi qarorning boshlanish qismidan keyin O'zbekistonda yangi tashkil qilingan 10 ta okrug va 87 ta rayon (tuman) nomlari quyidagi tartibda keltiriladi:

O'zbekiston SSR tarkibidagi okruglar va rayonlar:

1. Xorazm okrugi – markazi Xiva shahri; butun Xorazm viloyati asosida; 10 ta rayon (tuman)dan iborat.

2. Buxoro okrugi – markazi Eski Buxoro shahri; to'liq Buxoro va G'ijduvon uezdlari asosida; 7 ta rayondan iborat.

3. O'rta Zarafshon okrugi – muvaqqat markazi Karmana shahri; to'liq Karmana, qisman Nurota, Jizzax, Kattaqo'rg'on uezdlari va Kattaqo'rg'on shahri asosida; 6 ta rayondan iborat.

4. Samarqand okrugi – markazi Samarqand shahri; to'liq Samarqand uezdi, qisman Jizzax, Kattaqo'rg'on, Nurota uezdlari asosida; 10 ta rayondan iborat.

5. Toshkent okrugi – markazi Toshkent shahri; butun Toshkent viloyati asosida; 11 ta rayondan iborat.

6. Xo'jand okrugi – markazi Xo'jand shahri; Namangan, Konibodom, Xo'jand uezdlari asosida; 4 ta rayondan iborat.

7. Qo'qon okrugi – markazi Qo'qon shahri; to'liq Qo'qon uezdi; qisman Namangan, Farg'ona (Marg'ilon) uezdlari asosida; 11 ta rayondan iborat.

8. Andijon okrugi – markazi Andijon shahri; to'liq Andijon uezdi, qisman Farg'ona (Marg'ilon), Namangan, Qo'qon uezdlari; 12 ta rayondan iborat.

9. Surxondaryo okrugi – muvaqqat markazi Sherobod shahri; butun Surxondaryo viloyati asosida; 6 ta rayondan iborat.

10. Qashqadaryo okrugi – markazi Behbudiy [hozirgi - Qarshi] shahri; butun Qashqadaryo viloyati asosida; 8 ta rayondan iborat.

11. Alovida Konimex tumani – markazi Konimex; sobiq Beshrabot, Ayu-Teren, Boymetantek va Toshquduq volostlari asosida tuzilgan[8.].

Qarorda O'zbekiston SSR Sovetlari MIK Prezidiumiga loyihamda ko'zda tutilgan qishloq sovetlarining soni va tarkibi masalasi 2 hafta muddat ichida hal qilinishi hamda aholi punktlari bilan birgalikda ularning nomlari matbuotda e'lon qilinishi haqida so'z boradi. Xillas, O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish amalga 1927-yil fevral oyi o'rtaida yakunlandi.

## XULOSA

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti ko'rsatmasi asosida O'zbekistonni rayonlashtirish komissiyasi yangi rayonlashtirish loyihasini ishlab chiqdi. Loyiha keng omma tomonidan muhokama qilindi. Xususan, qishloq sovetlarining hududi va chegarasini aniqlash yuzasidan bir qator tuzatishlar kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish bu mintaqada yangi tuzilgan respublikalar va avtonom oblastlar taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Xususan, O'zbekiston SSRda 1926-yil sentabrda o'tkazilgan ma'muriy va iqtisodiy rayonlashtirish,

respublikada birinchi marta tashkil topgan 87 ta rayon (tuman), bir tomondan xalq xo'jaligi taraqqiyoti va iqtisodiyoti uchun, ikkinchi tomondan, yangi ma'muriy hududlarga bo'lish va boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etdi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год. С приложением схематической карты Средней Азии. – Ташкент: 1926. – С. 90.
2. А.Мавлонбеков "Ўз ССРда районлаштириш тўғрисида"ги // "Правда Востока" газетаси, 1926 йил 25 июнь.
3. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. Краткая характеристика проектируемых округов и районов. – Самарканд: Издание ЦКР Уз, 1926. – С. VI.
4. Вся Средняя Азия. Справочная книга на 1926 хоз. год. – Ташкент: Изд. Средне – Азиатского отделения Российско – Восточной торговой палаты, 1926;
5. Хакимов М.Х. Развитие национальной советской государственности в Узбекистане в период перехода к социализму. Основные проблемы. – Ташкент: "Наука", 1965
6. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 3405-иш, 181-варақ,
7. О районирование // "Правда Востока", 18 октября 1926 г.
8. "Правда Востока" 18 октября 1925 г.
9. O.M.Normatov O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida // FarDU ILMIY XABARLAR. Илмий журнал. 2023/№4. Farg'onasi. 175-180 бетлар.
10. O.M.Normatov. Some Aspects of the History of Namangan // Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal Volume2 Issue 2, Year 2023 ISSN:2835-3013, –Pp.264-268. <https://univerpubl.com/index.php/synergy>
11. O.M.Normatov. Socio-Economic and Administrative-Territorial Changes on the Eveof the Zoning of Samarkand // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 09, 2023, – Pp.396-398. <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1520>